



## BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLARNING BOSHLANISHI VA SABABLARI

**Ashuraliyeva Shohista Shavkat qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7697911>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-fevral 2023 yil  
Ma'qullandi: 28-fevral 2023 yil  
Nashr qilindi: 03-mart 2023 yil

### KEY WORDS

*Levant yo'li, Buyuk ipak yo'li, "Ziravor orollari", Kristofer Kolumb, karavel, Boltiq dengizi, Konstantinopol, Hindiston, "oltin muammosi", Madeyro, Kanar, Azar orollari.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada buyuk geografik kashfiyotlarning boshlanish sabablari, uning mohiyati, yangi yerlarning kashf qilinishi, kashf qilingan yerlarni o'rganalishi, mustamlakaga aylantirilishi hamda mustamlakachilik oqibatlari shuningdek yangi savdo yerlarining paydo bo'lishi haqida ma'lumotlar beriladi.*

Buyuk geografik kashfiyotlar atamasi XV -XVII asrlar oralig'ida yevropalik sayohatchilar tomonidan qilingan eng muhim geografik kashfiyotlarga nisbatan ishlatiladi. Geografik kashfiyotlar - bu ilgari odamlarga noma'lum bo'lgan yangi yerlarni qidirish va ochish. Mana, odamlarni buyuk ishlarga undagan sabablar: Birinchidan, XV oxirida - XVI asr boshlari asrlar davomida Yevropada tovar ishlab chiqarish tez sur'atlar bilan o'sa boshladi, bu esa xom-ashyoga bo'lgan talabning oshishiga olib keldi. Ammo Yevropada xom-ashyo yetarli bo'lmagani uchun uni boshqa davlatlardan import qilish zarur bo'ldi.

Ikkinchidan, O'rta Yer dengizi orqali mavjud savdo yo'llari, shuningdek, Osiyoni Yevropa bilan bog'laydigan Buyuk Ipak yo'li o'ta xavfli bo'lib qoldi. Bu yo'llar ustidan nazorat Usmonli imperiyasiga (Turkiya) o'tdi. Yangi dengiz savdo yo'llarini ochish yevropaliklar oldida turgan muammo tarixiy zaruratga aylandi. Bu vaqtgacha mavjud bo'lgan zamonaviy kemalar va qurol-yarog' rejani amalga oshirishga to'liq imkon berdi. Kompas bilan birga navigatsiyada qo'llanila boshlangan astrolabe ixtirosi ham katta ahamiyatga ega edi.

Yevropada savdo XVIII-XV asrlarda ikki yo'l bilan olib borilardi. Birinchisi, O'rta Yer havzasidagi Ispaniya, Italiya va janubiy Fransiyani - Vizantiya orqali Sharq mamlakatlari bilan bog'lab turadigan Levant yo'li edi. Ikkinchisi Yevropaning shimoli va Boltiq dengizi orqali-Novgorod, Bryugge, London, Lyubek shaharlari yo'li edi. Sharqdan keladigan ziravorlar qand, zargarlik, attorlik mollari, sharq matolari, G'arbiy Yevropadagi ko'pgina feodallar sinfining iste'moliga ko'proq kirib bora boshladi<sup>1</sup>. Janubiy Italiya, janubiy Fransiya, janubiy Ispaniyaning shaharlarining savdogarlari Sharq bilan savdo qilish

<sup>1</sup> Кантемирова Р.И. Новая история стран Европы и Америки: Учебно- методические материалы для студентов 2-3 курсов по специальности «032600 – История». – Стерлитамак: Стерлитамакский гос. пед. ин-т., 2003

natijasida boyib keta boshladilar. Biroq XV asrning II-yarmiga kelib, O'rta Yer dengizi orqali bo'ladigan Levant savdo yo'li qattiq inqirozga uchraydi. Chunki Sharqdan keladigan mollar arablar, vizantiyaliklar, italiyaliklar qo'lidan o'tib kelganligi tufayli narxi oshib ketgan edi. Yana bir sabab, g'arbiy va shimoli-g'arbiy Yevropa mamlakatlari savdogarlari uzoqroq Sharq bozorlariga borishlari qiyin edi. Yana bir sabab, Yaqin Sharqning turklar tomonidan istilo qilinishi ham Levant savdo yo'lini qiyinlashtirdi, chunki turklarning talonchiligi, dengiz qaroqchiligi, savdo kemalaridan, karvon va bozorlardan juda ko'p xilma xil soliqlar olinishi tufayli O'rta Yer dengizi bilan bo'ladigan savdo ham xavfli, ham kam foyda keltiradigan bo'lib qoldi va keyinchalik bu savdo ahyon-ahyonda bo'lib turardi. Yevropaliklar tomonidan Osiyoga O'rta Yer dengizi orqali o'zlashtirilgan savdo yo'llari, quruqlikdan o'tuvchi karvon yo'llari, shu jumladan, Buyuk ipak yo'li 1453-yili Konstantinopolni zabt etgan turklar tomonidan yopib qo'yildi. Natijada Yevropa Sharqdan keladigan tovarlardan ajralib qoldi. Matolar, qand, bo'yoqlar, murch, gullar va ziravorlar Yevropa bozorlariga deyarli kelmay qo'ydi. Ayniqsa, murchning yetishmasligi kundalik turmushga qattiq ta'sir qilar edi. Zero, XVI asrda murch oldi-sottida pulning o'rnini bosishi, kelinlar uchun beriladigan sep sifatida qo'llanilishi mumkin edi. Bu hol yevropalik savdogarlarni Hindistonga, "Ziravor orollari"ga va yevropaliklarga deyarli ma'lum bo'lmagan, ammo afsonaviy deb qarala yotgan Yaponiya va Xitoyga yangi yo'llarni izlashga majbur qildi. Qanday omillar XV asr oxiridan boshlab buyuk geografik kashfiyotlarning amalga oshirilishiga sabab bo'lgan edi?

Birinchidan, XV asr oxiri XVI asr boshlariga kelganda Yevropada tovar ishlab chiqarish yuqori sur'atlarda o'sa boshladi. Bu esa xomashyoga bo'lgan talabni oshirib yubordi. Yevropaning o'zida xomashyo kam bo'lganligi uchun uni faqat boshqa o'lkalardan olib kelish zaruratga aylandi.

Ikkinchidan, yangi davr hukmron tabaqalarining boylikka, pulga bo'lgan ehtiyojini yanada orttirib yubordi. Endi ularning ongini o'zga yurtlarning oltin kumushlarini va boshqa qimmatbaho boyliklarini egallab olish ishtiyoqi chulg'ab oldi.

Uchinchidan, quruqlikdan va O'rta Yer dengizidan o'tadigan savdo yo'llari, shu jumladan, Buyuk Ipak yo'li ham xavfli bo'lib qoldi<sup>2</sup>. Bu yo'llar ustidan nazorat Yevropa mamlakatlarining asosiy raqibi Usmonli turklar saltanati qo'lga o'tib ketdi. Turklar Kichik Osiyo va Suriya orqali boradigan savdo yo'llarini bosib oldilar, ular shu qadar katta boj olardilarki, bu mamlakatdan tovar olib o'tish foydasiz bo'lib qola boshladi. Turklar istilosi Yevropadan Osiyoga boriladigan yangi yo'llar qidirib topishni tezlashtirdi. Hindistonga olib boradigan, hali turklar bosib olmagan birdan bir yo'l-Misr orqali va Qizil dengiz orqali boradigan yo'l qolgan edi, xolos. Ammo bu yo'lni arablar monopoliya (monopoliya, yunon.mono-va; poleo-sotaman;-iqtisodiyotning bir sohasida tanho hukmronlik) qilib olgan edilar. Levant savdo yo'lida hukmron bo'lgan Venetsiyaliklar ham Sharqqa borganida Aleksandryagacha borib, u yerda ularni arab savdogarlari o'z ziravorlari bilan kutib olardilar. G'arbiy Yevropa savdogarlari endi arablarga va turklarga duch kelmasdan Hindistonga borish yo'lini qidira boshladilar. Shuningdek Yevropaliklar uchun afsonaviy bo'lgan Hindistonni qidirib topishni boshqa bir sababi ham bor edi.

<sup>2</sup> Дэвис Н. История Европы. М.: АСТ, 2006

Yevropada tovar xo'jaligining rivojlanishi qimmatbaho metallarni ko'proq talab qila boshlaydi. Ammo G'arbiy Yevropada qimmatbaho metallar qazib olish ishlari sust edi. Yevropa Sharqning qimmatbaho mollari evaziga o'zining qishloq xo'jalik va o'rmon xo'jalik mahsulotlarini mis, qalay qisman movut berardi. Yevropaning bu mollari Sharqdan sotib olinadigan mollarni qiymatini qoplay olmas edi. Shuning uchun Sharqqa yetmay qolgan summani muayyan miqdorini qimmatbaho metallar bilan to'lashga majbur bo'lardilar, natijada oltin va kumush Yevropaga kirmay, balki undan Sharq mamlakatlariga chiqib ketar edi. Shu tarzda Yevropada "oltin muammosi" kelib chiqdi. XV asrda Yevropaliklar oltin qidirib topish uchun noma'lum uzoq mamlakatlarga safarga chiqishga tayyorlana boshladilar.<sup>3</sup>

### Xulosa

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, buyuk geografik kashfiyot natijasida dunyoning tuzilishi haqida yangi tasavvurlar paydubuldi. Shu bilan birga buyuk geografik kashfiyot natijasida bir qancha davlatlarning XV-XVII asrlar orasidagi ijtimoiy axvoli, savdo aloqalarining qay tarzda olib borilganligining ko'rish mumkin. Bundan tashqari yangi qit'a va davlatlarning kashf qilinishi, yerning yumaloq shaklda ekanligining isbotlanishi, yangi savdo yo'llarining ochilishi, qit'alar va mamlakatlar o'rtasida muxim savdo aloqalari o'rnatilganini ko'rishimiz mumkin. Biroq yangi yerlarning ochilishi mustamlakachilik siyosatini olib keldi. Bo'ysundirilgan xalqlarni daxshatli eksplutatsiya qilish, ularni qullik va qirilib ketishga mahkum qilish bilan qo'shib olib borildi. Zabt etish jarayonida qadimgi sivilizatsiyalarning ko'plab o'choqlari yo'q qilindi. Shu tariqa buyuk geografik kashfiyotlarning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shuhrat Ergashev. Jahon tarixi (Yangi davr 1-qism. XVI-XVIII asrlar). Toshkent "O'zbekiston" 2013;
2. Бродель Ф. Что такое Франция? Кн. 1. «Пространство и история». М.: Изд-во им. Сабашниковых, 1994; кн. 2. «Люди и вещи». Ч. 1. М., 1995; Ч. 2. М., 1997;
3. Дорогова Л.Н. Западноевропейская культура Нового времени. – М., 2001;
4. Душенко К.В. Всемирная история в изречениях и цитатах. – М.: Эксмо, ИНИОН РАН, 2008;
5. Дэвис Н. История Европы. М.: АСТ, 2006;
6. Гизо Ф.П. История цивилизации в Европе. М.: Территория будущего, 2007;
7. Xolto'rayevich, M. A. (2022). The Last Period in the Resistance Movement in Surkhandarya and the Repression of the National Forces. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(12), 17-20.
8. Менглибоев, А. (2021). Сурхон воҳасида миллий озодлик ҳаракати натижалари ва оқибатлари. Academic research in educational sciences, 2(4), 1655-1674.
9. Nazirov, B. (2022). Ўзбекистонда жисмоний маданият ва спорт тарихи (XX аср–XXI аср бошларида Сурхон воҳаси мисолида). Scienceweb academic papers collection.
10. Nazirov, B. (2020). Ўзбекистонда жисмоний маданият ва Спорт тарихини (XX аср–XXI аср бошларида Сурхон воҳаси мисолида) ўрганишнинг долзарблиги. Scienceweb academic papers collection.

<sup>3</sup> Душенко К.В. Всемирная история в изречениях и цитатах. – М.: Эксмо, ИНИОН РАН, 2008

11. Менглибоев, А. Х. (2021). Сурхондарё округида миллий кучларнинг қатағон қилиниши. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 4(11).
12. Mengliboyev, A. X. R. (2020). Tarixiy shaxslarning milliy manfaatlar uchun kurashi tarixidan. Утмишга назар, 215-219.

